

**O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY TARMOQLARDA SODIR ETILADIGAN
JINOYATLARNING HUQUQIY TAVSIFI VA OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI**

Samandarova Samohigul

samohigulsamandarova@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs B-potok talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15903448>

Annotatsiya. Ushbu maqola barcha o‘z so‘z erkinligini va axborot xavfsizligini bilish uchun kirishayotgan o‘quvchi va huquqshunoslarga asoslangan. O‘zbekistonda raqamli muhitda so‘z va axborot erkinligi huquqini ta‘minlashning huquqiy mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqola O‘zbekiston Respublikasining raqamli jamiyatga o‘tishi va axborot erkinligi sohasidagi islohotlar jarayonidagi huquqiy asoslar va mexanizmlarni tahlil qiladi.

O‘zbekistonning Konstitutsiyasi, axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risidagi qonunlar, internetni boshqarish va raqamli infratuzilma xavfsizligini ta‘minlashga oid normativ huquqiy hujjatlar, shuningdek, jurnalistlik va matbuot erkinligi kabi masalalar maqolada ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda bu huquqiy mexanizmlarning amaliyotdagi samaradorligi va ularning yuzaga kelgan muammolar bilan bog‘liq holatlar tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, O‘zbekistonda axborot erkinligini ta‘minlash borasida mavjud yutuqlar va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida xulosalar chiqaradi. O‘zbekistonda raqamli muhitda so‘z va axborot erkinligi huquqini ta‘minlash uchun huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligi muhokama qilinadi. Maqola davlat organlarining axborot siyosatidagi roli va jamiyatda demokratik jarayonlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritadi.

Kalit so‘zlar: axborot erkinligi, huquqiy mexanizm, axborot xavfsizligi, internet infratuzilmasi, kiberhujum, axborot siyosati, internetni boshqarish, raqamli islohotlar, kiberxavfsizlik strategiyasi va boshqalar.

Kirish

So‘z va axborot erkinligi – har bir insonning demokratik jamiyatda o‘z fikrini erkin ifoda etish, ma‘lumotlarga erkin kirish va axborotlarni erkin tarqatish huquqi hisoblanadi. Ushbu huquq nafaqat shaxsiy erkinlikni ta‘minlash, balki jamiyatning intellektual va ma‘naviy rivojlanishining poydevorini tashkil etadi. Raqamli texnologiyalar jahonni yangi asrga olib chiqishda va jamiyatlarning rivojlanishida muhim omil bo‘lib, ular so‘z va axborot erkinligining yangi shakllarini yaratishga yordam berdi. Internetning global tarmog‘i va raqamli kommunikatsiyalar imkoniyatlari axborot almashishning cheksiz yo‘llarini ochdi. Ammo, shu bilan birga, yangi texnologiyalar raqamli muhitda so‘z erkinligini himoya qilishga oid yangi chaqiruvlarni ham keltirib chiqardi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqil siyosatini va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda axborot erkinligi va raqamli texnologiyalarni joriy etishga katta e‘tibor qaratmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va axborot texnologiyalarining keng qo‘llanilishi so‘z va axborot erkinligini ta‘minlashning yangi imkoniyatlarini yaratdi.

Shuningdek, O'zbekistonda axborot erkinligi, matbuot erkinligi va internetdagi erkin fikr almashish huquqlarini himoya qilishga doir bir qator huquqiy mexanizmlar ishlab chiqildi.

Biroq, raqamli muhitda so'z va axborot erkinligini ta'minlash jarayoni murakkab va ko'plab omillarga bog'liq. Jamiyatda so'z erkinligini cheklashga qaratilgan har qanday chora-tadbirlar, shu jumladan internetni boshqarish va axborotlarning tarqatilishi bo'yicha davlat nazoratining kuchayishi, bu erkinliklarni ta'minlashdagi samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining raqamli muhitda so'z va axborot erkinligi huquqini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlari va ularning samaradorligi o'rganish uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu maqola O'zbekistonda raqamli muhitda so'z va axborot erkinligi huquqini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini tahlil qilib, mamlakatda axborot siyosatining rivojlanishi, yangi qonunlar va normativ huquqiy hujjatlar, shuningdek, bu boradagi amaliy muammolarni ko'rib chiqadi. Maqola, shu bilan birga, ushbu mexanizmlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatishni maqsad qilgan.

Raqamli texnologiyalar jahon miqyosida so'z va axborot erkinligi, ma'lumotlarni erkin tarqatish va almashish jarayonini inqilobiy tarzda o'zgartirmoqda. Raqamli muhitda so'z erkinligi nafaqat shaxsiy huquq, balki demokratik jamiyatning poydevori hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ham raqamli texnologiyalarni rivojlantirishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri deb bilib, so'z va axborot erkinligini ta'minlashga doir bir qator huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli muhitda so'z va axborot erkinligi huquqini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi va ularning samaradorligi ko'rib chiqiladi.

Kiber jinoyatchilik — bu kompyuter tizimlari, tarmoqlar, qurilmalar yoki internet orqali sodir etiladigan jinoyatlar majmui.

Kiber hujumlar — bu tarmoq yoki tizimlarga ruxsatsiz kirish yoki ularni ishdan chiqarish orqali zarar yetkazish maqsadida sodir etiladigan.

Kiberterrorizm — bu siyosiy, diniy yoki mafkuraviy maqsadlarda, qo'rqitish yoki vahima chiqarish uchun axborot tizimlariga hujum qilish.

Kiber firibgarlik — foydalanuvchilarning moliyaviy yoki shaxsiy ma'lumotlarini aldash olish.

Zararli dasturlar (Malware, Ransomware)

Zararli dasturlar — foydalanuvchi qurilmasiga yashirincha o'rnatilib, zarar yetkazish yoki pul talab qilish uchun ishlatiladi.

Shaxsiy ma'lumotlarni buzish va identitetni o'g'irlash

Bu turdagi jinoyatlar shaxsga oid ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish, saqlash yoki tarqatishni o'z ichiga oladi.

Axborot xavfsizligi deb -ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossali tasodifiy va qasddan ta'sirlardan har qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi

Metodologiya

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda raqamli muhitda so'z va axborot erkinligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, bunda biz

nafaqat qonuniy hujjatlarni o'rgandik, balki ularning amaliyotdagi samaradorligini ham sinchiklab ko'rib chiqdik.

Maqola uchun ma'lumotlar to'plashda bir qancha usullardan foydalandik, ularning har biri tadqiqotning turli jihatlarini yoritishga yordam berdi:

1. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish (Doktrinal metod): Tadqiqotning asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Axborot erkinligi to'g'risida"gi qonun, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonun va "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun kabi asosiy normativ hujjatlarni har tomonlama o'rganish tashkil etdi. Biz ushbu qonunlarning har bir moddasini so'z va axborot erkinligi kontekstida tahlil qildik, ularning mazmunini, maqsadini va amaliy qo'llanilishidagi potentsial cheklovlarni aniqlashga harakat qildik. Shuningdek, xalqaro huquqiy normalar va boshqa davlatlarning tajribasi (masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Hindiston, Kanada, Xitoy, Yaponiya kiberxavfsizlik strategiyalari) bilan qiyosiy tahlil o'tkazib, O'zbekiston qonunchiligining kuchli va zaif tomonlarini baholadik.

2. Tarixiy-huquqiy tahlil: Biz O'zbekistonda axborot erkinligi va kiberxavfsizlik sohasidagi islohotlar jarayonini tarixiy nuqtai nazardan ko'rib chiqdik. Qonunchilikdagi o'zgarishlar, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va jamiyatning axborotlashuv darajasining o'zgarishi so'z erkinligiga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlashga urindik. Bu esa bizga mavjud muammolarning ildizini va ularning kelib chiqish sabablarini tushunishga yordam berdi.

3. Qiyosiy-huquqiy tahlil: Maqolada keltirilgan Ispaniya va Estoniyadagi kiberhujumlar misolida ko'rsatilganidek, biz O'zbekistondagi vaziyatni xalqaro tajriba bilan qiyosladik. Bu xorijiy davlatlarda kiberxavfsizlik tahdidlariga qanday munosabatda bo'linishi, axborot erkinligini himoya qilish mexanizmlari qanday ishlashi va qaysi yondashuvlar samarali ekanini ko'rib chiqish imkonini berdi. Bu qiyosiy tahlil O'zbekiston uchun kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

4. Amaliy misollar va keys-stadi usuli: Tadqiqotda real hayotiy misollar (masalan, Ispaniyadagi IGC ga qarshi hujum, Estoniyadagi kiberhujumlar) keltirilib, kiberjinoyatchilikning oqibatlari va axborot xavfsizligining ahamiyati yoritildi. Bu misollar huquqiy mexanizmlarning amaliyotdagi dolzarbligini ko'rsatib, masala jiddiyligini o'quvchiga yanada yaqinroq his ettirishga xizmat qildi.

Ushbu metodologiya yondashuvlari bizga O'zbekistonda raqamli muhitdagi so'z va axborot erkinligi masalasiga har tomonlama nazar tashlash, mavjud holatni baholash va kelajakdagi takomillashtirish yo'llari bo'yicha asosli xulosalar chiqarishga imkon berdi. Bizning maqsadimiz – ushbu murakkab mavzuni nafaqat huquqshunoslar, balki oddiy o'quvchilar uchun ham tushunarli va qiziqarli tarzda yoritish edi.

Natijalar

O'zbekistonda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik imkoniyatlari kengaymoqda.

Kelgusida O'zbekistonda davlat idoralari va kompaniyalarga axborot xavfsizligi risklarini kamaytiruvchi mexanizmlar ishga tushadi. Kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro lider bo'lmish "Kasperskiy laboratoriyasi" hamda axborot xavfsizligi sohasidagi yechimlar va xizmatlarni mahalliy yetkazib beruvchilari orasidagi yetakchisi "UNIVERSOFT IT" o'zaro hamkorlikda O'zbekistonda kiberxavfsizlik darajasini oshirish, xususan, davlat idoralari va kompaniyalarga axborot xavfsizligi risklarini kamaytirishda yordam berish maqsadida o'z kuchlarini

birlashtirmoqda. Natijada, “Kasperskiy laboratoriyasi” ko‘magida O‘zbekistonda birinchi mahalliy antivirus yechimini taqdim etadi. Hamkorlik natijasida “UNIVERSOFT IT” mijozlariga o‘z brendi ostidagi birinchi mahalliy himoya yechimini — “UZGUARD AV” dasturiy mahsulotini taklif etadi. Yechim “Kasperskiy laboratoriyasi” texnologiyalariga asoslanadi. U zarur sertifikatlashtirishdan o‘tadi va O‘zbekiston Respublikasining milliy standartlariga to‘liq javob beradi.

“Biz kiberxavfsizlik sohasida tan olingan kompaniya bo‘lmish “UNIVERSOFT IT” bilan hamkorlik qilishdan mamnunmiz. Sa’y-harakatlarimizni birlashtirish O‘zbekistonda talabgir va tan olingan innovatsion va samarali yechimlarni yaratish imkonini beradi. Ushbu hamkorlik Markaziy Osiyo mintaqasida respublikaning kompaniyamiz uchun strategik ahamiyatini ta’kidlaydi”, — deya sharhlaydi “Kasperskiy laboratoriyasi”ning Markaziy Osiyo va Mo‘g‘ulistondagi boshqaruvchi direktori Valeriy Zubanov.

Kiberxavfsizlik har bir sohada muhim ahamiyatga ega va biz mijozlarga tegishli yechimlar va xizmatlarni taqdim etishga intilamiz. Biz dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va texnik xizmat ko‘rsatish, shuningdek, xavfsiz IT-infratuzilmalarni yaratish borasida katta tajriba to‘plaganmiz. “Kasperskiy laboratoriyasi” bilan hamkorlik bizga o‘z kompetensiyamizni oshirish va portfoliomizni axborot xavfsizligi sohasida xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotlar bilan boyitish imkonini beradi”, — deya sharhlaydi “UNIVERSOFT IT” kompaniyasi vakili Damir Jabborzoda. Ma’lumot uchun: “Kasperskiy laboratoriyasi” axborot xavfsizligi va raqamli maxfiylik sohasida 1997 yildan beri faoliyat yurituvchi xalqaro kompaniyadir. “Kasperskiy laboratoriyasi” texnologiyalari butun dunyo bo‘ylab 400 milliondan ortiq foydalanuvchilar va 220 ming korporativ mijozlarni himoya qiladi. Shuningdek, kompaniya “KasperskyOS” mikroyader operatsion tizimiga asoslangan va sukut bo‘lganida xavfsizlikni ta’minlaydigan kiber-immun yechimlarni ham yaratadi. 2011-2018 yillar davomida deyarli barcha Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar o‘zlarining kiberxavfsizlik bo‘yicha milliy strategiyalarini (yoki yangi nashrlarini) nashr etishdi. Shunday qilib, Italiyada 2013 yilda kiberxavfsizlik bo‘yicha milliy strategic asos, Germaniya uchun kiberxavfsizlik strategiyasi-2016, Buyuk Britaniyaning 2016-2021 yillarda milliy kiberxavfsizlik strategiyasi, Shvetsiyaning 2017-yilda kiberxavfsizlik bo‘yicha milliy strategiyasi va boshqalar tasdiqlandi. Avstraliyada ham shunday strategiyalar mavjud (2016), Hindiston (2013), Kanada (2018), Xitoy (2016), Yaponiya (2015) va boshqalar. 2016 yil oxirida Rossiya Federatsiyasining yangi Axborot xavfsizligi doktrinasi tasdiqlandi. 2017 yil iyun oyida << Qozog‘istonning kiber qalqoni >> kiberxavfsizlik kontsepsiyasi abul qilindi. Bunga bitta misol keltirib o‘tadigan bo‘lsam, 1998-yilda ispan namoyishchilari Global Communications Institutini (IGC) minglab soxta elektron pochta xabarlar bilan bombardimon qilishadi. E-pochta to‘silgan va ISP foydalanuvchilariga yetkazilmagan, qo‘llab-quvvatlash liniyalari esa o‘z pochta xabarlarini ololmagan odamlar bilan bog‘langan edi. Namoyishchilar, shuningdek, IGC xodimlari va a’zolari hisoblariga spam jo‘natishadi, o‘zlarining veb-sahifalarini soxta kredit karta buyurtmalari bilan yopib qo‘yishadi va IGC xizmatlaridan foydalanadigan tashkilotlarga nisbatan xuddi shunday taktikani qo‘llash bilan tahdid qilishadi. Ular IGCdan Bask mustaqilligini qo‘llab-quvvatlovchi Nyu-Yorkda joylashgan Euskal Herria Journal nashri uchun veb-saytni joylashtirishni to‘xtatishni talab qilishadi.

Namoyishchilarning aytishicha, IGC terrorizmni qo'llab-quvvatlagan, chunki veb-sahifalardagi bo'limda Ispaniya siyosiy va xavfsizlik amaldorlariga suiqasd hamda harbiy inshootlarga hujumlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olgan ETA terrorchilik guruhi haqidagi materiallar mavjud edi. IGC nihoyat tavba qiladi va „pochta portlashlari“ tufayli saytni tortib oladi. Yana bitta misol :2007-yilning may oyida Estoniyaning Tallin shahri markazidan Ikkinchi jahon urushi yodgorligi olib tashlanganidan keyin mamlakat ommaviy kiberhujumlar hurujiga uchraydi. Hujum DoS hujumlar huruji tarzida tashkillashtirilgan bo'lib, bundatanlangan saytlarni oflayn rejimga o'tkazishga majbur qilish uchun trafik bilan bombardimon qilingan. Estoniya hukumatining deyarli barcha vazirliklar tarmoqlari, shuningdek, Estoniyaning ikkita yirik bank tarmoqlari oflayn rejimda o'tadi va ishlamay qoladi. Bundan tashqari, Estoniya bosh vaziri Andrus Ansipning siyosiy partiya veb-saytida Ansipning yodgorlik haykalini olib tashlagani uchun soxta uzr so'ragan xati joy olgan. Hujum Rossiya hukumati tomonidan muvofiqlashtirilganligi haqidagi taxminlarga qaramay, Estoniya mudofaa vaziri kiberhujumlarni Rossiya rasmiylari bilan bog'laydigan ishonchli dalillarga ega emasligini tan oladi. Rossiya o'zining ishtiroki haqidagi ayblovlarni „asossiz“ deya iddao qiladi va na NATO, na Yevropa komissiyasi ekspertlari Rossiya hukumatining rasmiy ishtiroki haqida hech qanday ishonchli dalil topa olishmaydi. 2008-yil yanvar oyida mamlakat fuqarosi Estoniya islohotlar partiyasi veb-saytiga hujum uyushtirganlikda ayblanib, jarimaga tortiladi

Bu bilan shuni aytmoqchimanki agarda biz axborot xavfsizligini yanada rivojlantirib boshqa davlatlarda bo'lib o'tgan ishlar bizning tinch zaminimizga ham kirib kelishini xohlamasak mexanizmlarimizni yanada yaxshiroq ,sifatliroq va kuchliroq qilib ishlab tuzishimiz lozim bo'ladi. Nafaqat men har bir fuqaro, har bir davlat hech kimga bunday bo'lib o'tgan ishlarni tilab qolmaydi.

Muhokama

Kiberterrorizm ko'lamining asosiy ta'rifi bo'yicha munozaralar mavjud. Ushbu ta'riflar tor bo'lishi mumkin, masalan, Internetdagi boshqa tizimlarga hujum qilish uchun Internetdan foydalanish, bu odamlar yoki mulkka nisbatan zo'ravonlikka olib keladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari infratuzilmalariga odatiy hujumlar uchun terrorchilar tomonidan Internetdan foydalanishning har qanday shaklini o'z ichiga olgan keng bo'lishi mumkin. Ishda motivatsiya, maqsadlar, usullar va kompyuterdan foydalanishning markaziyliigi bo'yicha malakaning o'zgarishi mavjud. AQSh davlat idoralari ham turli xil ta'riflardan foydalanadilar va ularning hech biri hozirgacha o'z ta'sir doirasidan tashqarida majburiy bo'lgan standartni joriy etishga urinmagan. Agar kiberterrorizmga an'anaviy terrorizmgao'xshash munosabatda bo'lsa, u faqat mulk yoki hayotga tahdid soladigan hujumlarni o'z ichiga oladi va jismoniy, haqiqiy zarar yoki jiddiy buzilishlarni keltirib chiqarish uchun maqsadli kompyuterlar va ma'lumotlardan, xususan, Internet orqali foydalanish infratuzilmasi sifatida ta'riflanishi mumkin. Terrorizmni o'rganish bo'yicha ixtisoslashgan ko'plab akademiklar va tadqiqotchilar kiberterrorizm mavjud emasligini va haqiqatan ham xakerlik yoki axborot urushi masalasi ekanligini ta'kidlamogda. Hozirgi hujum va himoya texnologiyalarini hisobga olgan holda, elektron vositalardan foydalangan holda aholida qo'rquv, jiddiy jismoniy zarar yoki o'lim paydo bo'lishi ehtimoli yo'qligi sababli uni terrorizm deb belgilashga rozi emaslar.

O'zbekistonning raqamli muhitda so'z va axborot erkinligi huquqini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlar albatta, bir qator yutuqlarga olib kelgan. Bir tomondan, axborot erkinligi sohasida mavjud qonunlar joriy etilishi va internetda erkin fikr bildirish imkoniyatlarining kengayishi jamiyatning demokratik taraqqiyotini ta'minlashga yordam bermoqda. Biroq, bu jarayonda bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Misol uchun, internetda so'z erkinligini cheklovchi qonunlar va amaliyotlar ba'zan jurnalistlar va oddiy fuqarolarning erkin fikr bildirish huquqini cheklashga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi bilan birga, axborot xavfsizligi masalalari ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Bunga misol sifatida, axborotlarni nojo'ya maqsadlarda ishlatish, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash kabi xavf-xatarlar mavjud.

Shuningdek, internetni boshqarish bo'yicha davlat organlarining roli va aralashuv darajasi ham ko'plab savollarni yuzaga keltirmoqda.

Xulosa

Kiber jinoyatlar, shu jumladan kiber hujum va kiberterrorizm zamonaviy davrning eng xavfli tahdidlaridan biridir. Bu soha:

- **transmilliy** (bir necha davlatni qamrab oladi),
- **tez o'zgaruvchan,**
- **texnologik murakkab** bo'lgani sababli, huquqiy tizimlar ham doimiy ravishda yangilanib borishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida raqamli muhitda so'z va axborot erkinligi huquqini ta'minlashga qaratilgan bir qator huquqiy mexanizmlar mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

1. **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi:** O'zbekiston Konstitutsiyasining 33-moddasida so'z va axborot erkinligi kafolatlanadi. Bunda, har bir fuqaroning o'z fikrini erkin ifoda etish huquqi borligi ta'kidlangan. Bu normativ hujjat mamlakatda so'z va axborot erkinligini ta'minlashning asosiy huquqiy asosidir.¹

2. **Axborot erkinligi to'g'risidagi qonun:** 2019 yilda qabul qilingan "Axborot erkinligi to'g'risida"gi qonun O'zbekistonda axborot erkinligini ta'minlashda muhim huquqiy vositadir.

Ushbu qonun davlat organlarining axborotlarni erkin tarqatish va almashishda qanday mas'uliyatga ega ekanligini belgilaydi.²

3. **Jurnalistlik va matbuot erkinligi:** Raqamli muhitda jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishi, axborot olish va tarqatish huquqi o'rnatilgan qonunlar bilan himoya qilinadi. Bunda, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish"ga oid milliy va xalqaro standartlar hisobga olinadi.

4. **Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonun:** Raqamli tizimlar va ma'lumotlarning xavfsizligini saqlash, internetdagi zararli faoliyatlarni oldini olish va jazolash, yagona xavfsizlik tizimini yaratish va qo'llash, boshqa davlatlar bilan kiberxavfsizlik bo'yicha hamkorlik qilish, ommaviy axborot va o'quv dasturlar orqali xavfsizlikni ta'minlash.

Bu vazifalar kiberxavfsizlikni mustahkamlash, xavf-xatarlarni kamaytirish va internetda xavfsiz muhit yaratishga qaratilgan.³

¹ <https://lex.uz/docs/20596>

² <http://lex.uz/docs/-52268>

³ <http://lex.uz/uz/docs/-5960604>

Konstitutsiyamizda aytilganidek soʻz va axborot erkinligi kafolatlanadi, har bir fuqaro oʻz fikrini erkin ifoda etishga haqli deyilgan. Ushbu normativ hujjat mamlakatimizning ushbu bergan erkinligining eng katta asosiy huquqiy asosidir. Jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishiga oid qoidalarga keladigan boʻlsak, jurnalistlar bizga oʻzlariga kelib tushgan maʼlumotlarni yetkazib turishadi va ayrim bir joylarida ular bizga berishi kerak boʻlgan axborotni berisha olmaydi.

Sababi shundaki ular xatò maʼlumot berib qoʻyishsa buning oqibati nima bilan tugashiga koʻproq eʼtibor qaratishadi.

Oʻzbekistonda raqamli muhitda soʻz va axborot erkinligini taʼminlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar mavjud boʻlib, ular davlatning axborot siyosati va raqamli infratuzilmani rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Biroq, ushbu mexanizmlarning samaradorligini taʼminlash uchun qonunlarni yanada takomillashtirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash va internetda soʻz erkinligini cheklovchi amaliyotlarga qarshi kurashish zarur. Oʻzbekiston raqamli muhitda soʻz va axborot erkinligi huquqini taʼminlashda katta yutuqlarga erishgan boʻlsa-da, bu boradagi islohotlar davom etishi kerak. Xulosa qismida shuni aytishim lozimki, biz qayerda qanday sharoitda boʻlganimizdan yoki boʻlishimizdan qatʼiy nazar biz har doim davlatimizning himoyasi ostida boʻlamiz. Biz oʻzimizni xavfsiz deb his qiladigan boʻlsak ijtimoiy tarmoqlarga va boshqa kundalik hayotimizda foydalanib kelayotgan narsalarimizga hech nimadan qoʻrqmasdan oʻz rasmimizni joylashimiz ham mumkin. Oʻzbekistonda axborot erkinligini taʼminlash, davlat va jamiyatning oʻzaro aloqalarini yanada rivojlantirish, shuningdek, internet va kiberxavfsizlik sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish dolzarb vazifalardan biridir. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan qonuniy islohotlar, axborot texnologiyalari va internetni rivojlantirishga qaratilgan saʼy-harakatlar, albatta, mamlakatning raqamli infratuzilmasini yaxshilashga yordam bermoqda. Biroq, axborot erkinligi, matbuot va jurnalistlar erkinligi masalalarida hali ham koʻplab muammolar mavjud. Kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligini taʼminlash, davlat va xususiy sektorning hamkorligini kuchaytirish, axborot tarqatishdagi erkinlikni cheklovsiz taʼminlash yoʻlida yanada samarali qonunlar va meʼyoriy hujjatlar ishlab chiqilishi zarur.

Maqolada keltirilgan barcha masalalar birgalikda mamlakatda ochiq va erkin axborot almashinuvi, shuningdek, raqamli dunyoda xavfsiz va barqaror tizimlarni yaratishga qaratilgan islohotlar zarurligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni yanada kuchaytirish, texnologiyalarni joriy qilishda davlat va jamoatchilik oʻrtasida samarali hamkorlikni taʼminlash, shuningdek, jurnalistik erkinlik va axborot huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar maqsadga muvofiqdir.

Kelajakda bu yoʻnalishlar boʻyicha olib borilayotgan islohotlar, jamiyatning axborotga boʻlgan talablarini qondirish, shuningdek, kiberxavfsizlikni taʼminlashda davlat va fuqarolar oʻrtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, Oʻzbekistonning raqamli rivojlanish yoʻlidagi muvaffaqiyatlari, xalqaro miqyosda oʻzining oʻrnini mustahkamlashga imkon yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi

3. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun. <http://lex.uz/docs/-52268>
4. “Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portaliga axborotlarni taqdim etish va joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi qonun <http://lex.uz/docs/-1473967>
5. “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun <http://lex.uz/uz/docs/-5960604>
6. “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qonun <http://lex.uz/docs/-4071401>
7. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonun <http://lex.uz/docs/-139006>
8. “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun” <http://lex.uz/docs/-4396419>